



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PEDAGOGIK TERMINLARNING AKSILOGIK VA KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Nizomova Mohinur Baratboyevna

Qarshi davlat universiteti, kafedra mudiri, (DSc), dotsent

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning aksiologik va konseptual xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida pedagogik terminlar tarkibida aks etgan ta'limiy qadriyatlar, ularning konseptual mazmuni hamda pedagogik diskursdagi funksional xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek til madaniyatlarida pedagogik terminlarning qadriyatlar tizimini ifodalashdagi o'rni va lingvokognitiv mohiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik termin, aksiologiya, konseptual maydon, ta'limiy qadriyatlar, pedagogik diskurs, lingvokognitiv tahlil, terminologiya, ingliz tili, o'zbek tili.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Низомова Мохинур Баратбоевна

Каршинский государственный университет, заведующая кафедрой, (DSc), доцент

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ аксиологических и концептуальных особенностей педагогических терминов в английском и узбекском языках. В ходе исследования выявляются образовательные ценности, отражённые в структуре педагогических терминов, их концептуальное содержание и функциональные особенности в педагогическом дискурсе. Также рассматриваются роль педагогических терминов в выражении системы ценностей и их лингвокогнитивная сущность в английской и узбекской языковых культурах. Результаты исследования показывают, что педагогическая терминология служит не только средством выражения научных понятий, но и инструментом передачи важных социальных и культурных ценностей в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогический термин, аксиология, концептуальное поле, образовательные ценности, педагогический дискурс, лингвокогнитивный анализ, терминология, английский язык, узбекский язык.

AXIOLOGICAL AND CONCEPTUAL FEATURES OF PEDAGOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Nizomova Mohinur Baratboyevna

Karshi State University, Head of Department, Associate Professor (DSc)

Abstract

The article presents a comparative analysis of the axiological and conceptual features of pedagogical terms in English and Uzbek. The study identifies the educational values reflected in pedagogical terminology, their conceptual content, and their functional characteristics within pedagogical discourse. It also explores the role of pedagogical terms in expressing value systems and their linguocognitive significance in English and Uzbek linguistic cultures. The findings demonstrate that pedagogical terminology functions not only as a means of expressing scientific concepts but also as a tool for transmitting important social and cultural values within the educational process.

Keywords: pedagogical term, axiology, conceptual field, educational values, pedagogical discourse, linguocognitive analysis, terminology, English language, Uzbek language.

XXI asr tilshunosligida terminologik tizimlarni tadqiq etish an'anaviy struktur-semantik yondashuv doirasidan chiqib, kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy va aksiologik paradigmalariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Zamonaviy terminologiya nazariyasida termin faqat ma'lum bir ilmiy tushunchaning nomi emas, balki inson tafakkurida shakllangan konseptual bilimlar tizimining verbal ifodasi sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan pedagogik terminologiya ham ta'lim tizimining nazariy asoslarini, ijtimoiy ehtiyojlarini hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab konseptual tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globalashuv sharoitida ta'lim sohasida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar pedagogik terminologiyaning tarkibi va mazmuniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim, inklyuziv ta'lim, raqamli pedagogika, uzluksiz ta'lim, akademik halollik, reflektiv ta'lim, tanqidiy fikrlash kabi tushunchalar zamonaviy pedagogik diskursning markaziy elementlariga aylanib bormoqda. Mazkur terminlar o'z mohiyatida nafaqat ilmiy tushunchalarni, balki ta'lim tizimining asosiy qadriyatlarini ham ifodalaydi.

Pedagogik terminlarning semantik tarkibida aks etuvchi qadriyat komponentlarini o'rganish aksiologik yondashuvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aksiologik tahlil terminologik birliklar tarkibida yashiringan baholash kategoriyalarini, ijtimoiy ideal va me'yorlarni aniqlash imkonini beradi. Chunki har bir pedagogik termin muayyan ta'limiy konsepsiya va qadriyatlar tizimining mahsuli sifatida shakllanadi.

Pedagogik terminlarni aksiologik nuqtayi nazardan tadqiq etish ta'lim jarayonining gumanistik mohiyatini anglash imkonini beradi. Masalan, learner autonomy (o'quvchi mustaqilligi), academic integrity (akademik halollik), inclusive education (inklyuziv ta'lim), collaborative learning (hamkorlikda o'qitish), lifelong learning (uzluksiz ta'lim) kabi terminlar zamonaviy mustaqillik, halollik, tenglik, hamkorlik va rivojlanish kabi universal pedagogik qadriyatlar mujassamlashgan.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan pedagogik terminlar ma'lum konseptlarning verbal reprezentanti hisoblanadi. Lakoff va Johnson konsepsiyasiga ko'ra, inson tafakkuri konseptlar orqali tashkil topadi va til ushbu konseptlarni ifodalash vositasi vazifasini bajaradi. Shuning uchun pedagogik terminlarning mazmunini tushunish uchun ular ortida turgan konseptual strukturalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Til nafaqat bilimlarni ifodalovchi vosita, balki millatning qadriyatlari, madaniy tajribasi va konseptual dunyoqarashini saqlovchi tizim ham hisoblanadi [1; 48-6.]

Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminologiya qiyosiy jihatdan o'rganilganda ayrim universal hamda milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Ingliz pedagogik diskursida individualizm, mustaqillik, tanqidiy tafakkur va shaxsiy rivojlanish qadriyatlari ustuvorlik qilsa, o'zbek pedagogik diskursida jamoaviylik, ustoz-shogird an'analari, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu farqlar pedagogik terminlarning semantik va konseptual tuzilishida ham o'z aksini topadi. Pedagogik terminlar faqat ta'lim jarayoniga oid tushunchalarni nomlovchi birliklar emas, balki mustaqillik, hamkorlik, akademik halollik, inklyuzivlik va uzluksiz rivojlanish kabi ta'limiy qadriyatlarni verbalizatsiya qiluvchi aksiologik-konseptual birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi [2; 112-6.].

1-jadval. Pedagogik terminlarda aks etuvchi asosiy aksiologik qadriyatlar (Ingliz tilida)

Pedagogik termin	O'zbekcha muqobili	Aksiologik mazmuni
Learner autonomy	O'quvchi mustaqilligi	Mustaqil fikrlash, shaxsiy mas'uliyat
Inclusive education	Inklyuziv ta'lim	Tenglik, bag'rikenglik, ijtimoiy adolat
Academic integrity	Akademik halollik	Halollik, vijdonlilik, mas'uliyat
Lifelong learning	Uzluksiz ta'lim	Doimiy rivojlanish, o'zini takomillashtirish
Collaborative learning	Hamkorlikda o'qitish	Jamoaviylik, o'zaro yordam, hamkorlik

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning aksiologik hamda konseptual xususiyatlarini aniqlash, ularda ifodalangan ta'limiy qadriyatlarni tavsiflash va pedagogik diskursdagi funksional ahamiyatini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik terminlarning aksiologik mohiyatini aniqlash;
- ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlar tarkibidagi qadriyat komponentlarini tavsiflash;
- pedagogik terminlarning konseptual tuzilishini tahlil qilish;
- pedagogik terminlar orqali verbalizatsiyalangan ta'limiy qadriyatlarni aniqlash;
- ingliz va o'zbek pedagogik terminologiyasining aksiologik-konseptual xususiyatlarini qiyosiy o'rganish;
- pedagogik terminlarning zamonaviy ta'lim diskursidagi funksiyalarini yoritish.

Tadqiqot natijalari pedagogik terminologiyani yangi aksiologik va kognitiv paradigmalar asosida kompleks talqin etish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur yondashuv ta'limga oid terminologik birliklarning nafaqat semantik va funksional xususiyatlarini, balki ularning milliy-madaniy qadriyatlar tizimi, pedagogik tafakkur modeli hamda universal ta'lim konsepsiyalari bilan bog'liq jihatlarni aniqlashda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval. Pedagogik terminlarning konseptual tarkibi

Termin	Asosiy konsept	Konseptual komponentlar
Learner autonomy	MUSTAQILLIK	Tanlov, mas'uliyat, o'z-o'zini boshqarish
Critical thinking	TAFAKKUR	Tahlil, baholash, dalillash, xulosa chiqarish
Mentoring	USTOZLIK	Yo'naltirish, tajriba uzatish, qo'llab-quvvatlash
Assessment	BAHOLASH	Natija, mezon, nazorat, rivojlanish
Inclusive education	TENGLIK	Ishtirok, imkoniyat, qo'llab-quvvatlash

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda terminologik birliklarni faqat predmet-hodisa va tushunchalarni nomlovchi nominativ vositalar sifatida emas, balki muayyan jamiyatning ijtimoiy-madaniy tajribasi, qadriyatlar ierarxiyasi, intellektual an'analari va konseptual dunyoqarashini ifodalovchi murakkab kognitiv-semantik tuzilmalar sifatida o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, pedagogik terminologiya ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishi, milliy tarbiya an'analari, zamonaviy didaktik qarashlar va global ta'lim tendensiyalari bilan uzviy aloqador holda shakllanib, o'z tarkibida muayyan aksiologik mezonlar, ijtimoiy ideallar, pedagogik konsepsiyalar hamda madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlar nafaqat ta'lim jarayonining ilmiy kategoriyalarini ifodalaydi, balki jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati, shaxs rivoji haqidagi tasavvurlari va ustuvor qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu jihatdan pedagogik terminlarning aksiologik va konseptual xususiyatlarini qiyosiy o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning aksiologik hamda konseptual xususiyatlarini aniqlash va ularning ta'limiy qadriyatlar tizimini ifodalashdagi o'rnini yoritishdan iborat.

Aksiologiya borliqdagi hodisa, tushuncha va munosabatlarning qadriyat sifatidagi mohiyatini, ularning inson va jamiyat hayotidagi baholanish mezonlarini o'rganuvchi falsafiy-nazariy yo'nalish hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa aksiologik yondashuv til birliklari semantikasida mujassamlashtirilgan baholash, qadrlash, ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish hamda ijtimoiy-ma'naviy mezonlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan pedagogik terminologiyani aksiologik aspektga tadqiq etish ta'lim jarayonida qo'llaniladigan terminlarning faqat tushuncha nomi emas, balki jamiyat tomonidan e'tirof etilgan ma'naviy, axloqiy, intellektual va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi lingvistik vosita ekanini ko'rsatadi.

3-jadval. Ingliz va o'zbek pedagogik terminlarining aksiologik-konseptual qiyosi

Qiyos mezon	Ingliz pedagogik terminologiyasi	O'zbek pedagogik terminologiyasi
Yetakchi qadriyat	Individual rivojlanish, mustaqillik	Jamoaviylik, tarbiya, ustoz-shogird an'anasi
Markaziy konseptlar	Autonomy, competence, critical thinking	Tarbiya, ma'naviyat, ustozlik, mas'uliyat
Termin namunalar	learner autonomy, academic integrity, self-directed learning	mustaqil ta'lim, ma'naviy tarbiya, ustoz-shogird
Diskursiv yo'nalish	Shaxsiy tashabbus va kompetensiya	Ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy kamolot
Umumiy jihat	Sifatli ta'lim, rivojlanish, samaradorlik	Sifatli ta'lim, rivojlanish, samaradorlik

Pedagogik terminlarning aksiologik mohiyati, avvalo, ularning ta'lim va tarbiya jarayonida inson kamoloti, shaxs rivoji, bilimga intilish, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat, adolat, insonparvarlik, hamkorlik va ijodkorlik kabi qadriyatlarni konseptual tarzda ifodalashi bilan belgilanadi. Masalan, komil shaxs, ma'naviy tarbiya, insonparvar ta'lim, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, ijodiy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim sifati, pedagogik hamkorlik kabi terminlar o'z semantik tarkibida nafaqat didaktik mazmunni, balki muayyan qadriyatga asoslangan baholovchi ma'noni ham mujassamlashtiradi.

B. Bernstein esa pedagogik diskursni ijtimoiy nazorat, madaniy ma'no va ta'limiy qadriyatlarni uzatish mexanizmi sifatida izohlaydi [3; 230-6.]. Aksiologik komponent pedagogik terminlarning ichki mazmunida ijobiy baho, ijtimoiy maqsad va tarbiyaviy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi,

kompetensiya termini zamonaviy ta'limda faqat bilim va ko'nikmalar majmuini emas, balki mustaqil fikrlovchi, mas'uliyatli, amaliy faoliyatga tayyor shaxsni shakllantirish g'oyasini ham ifodalaydi. Insonparvar ta'lim termini esa pedagogik jarayonda shaxs qadr-qimmati, erkinligi, ehtiyoji va individual imkoniyatlarini e'tirof etish kabi aksiologik tamoyillarni anglatadi. Ma'naviy tarbiya termini milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni ta'lim mazmuniga singdirish bilan bog'liq konseptual mazmunga ega.

Pedagogik terminlarning aksiologik mohiyati ularning ta'lim-tarbiya jarayonida inson, jamiyat, bilim, ma'naviyat, mas'uliyat, erkin fikrlash va ijtimoiy taraqqiyot kabi qadriyatlarni ifodalash xususiyatida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham pedagogik terminlar faqat ilmiy tushunchalarni nomlash bilan cheklanmaydi, balki muayyan ta'limiy qadriyatlar tizimini, milliy-madaniy qarashlarni hamda universal pedagogik ideallarni aks ettiradi.

Ingliz tilidagi learner autonomy termini zamonaviy ta'limda o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'z bilim faoliyatini boshqarishi va shaxsiy mas'uliyatini anglatadi. Ushbu termin tarkibida erkinlik, mustaqillik, tanqidiy fikrlash va individual javobgarlik kabi aksiologik komponentlar mavjud. O'zbek tilidagi mustaqil ta'lim termini ham mazmunan shunga yaqin bo'lib, talabaning o'z ustida ishlashi, bilimni mustaqil egallashi va shaxsiy intellektual rivojlanishga intilishini ifodalaydi. Biroq o'zbek pedagogik diskursida bu termin ko'proq intizom, mas'uliyat va o'z-o'zini tarbiyalash qadriyatlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Masalan: English: learner autonomy – independence, self-regulation, responsibility. O'zbek: mustaqil ta'lim – o'z ustida ishlash, mas'uliyat, intellektual kamolot. Bu ikki termin o'rtasidagi umumiy jihat shundaki, har ikkalasi ham ta'lim oluvchining faol subyekt sifatidagi maqomini ifodalaydi. Farqli jihati esa ingliz tilidagi learner autonomy terminida individual erkinlik va shaxsiy tanlov qadriyati kuchliroq bo'lsa, o'zbek tilidagi mustaqil ta'lim terminida mas'uliyat, mehnatsevarlik va o'zini rivojlantirish g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim terminlardan biri inclusive education bo'lib, u ingliz tilidagi pedagogik diskursda barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy adolat, kamsitmaslik va inson huquqlarini e'tirof etish kabi qadriyatlarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi inklyuziv ta'lim termini ham mazkur mazmunni aks ettiradi, biroq milliy ta'lim muhitida u ko'proq mehr-shafqat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlari bilan uyg'unlashadi. Masalan: English: *inclusive education – equality, diversity, social justice, accessibility*. Uzbek: inklyuziv ta'lim – teng imkoniyat, mehr-shafqat, bag'rikenglik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Bu terminlar orqali ingliz va o'zbek pedagogik tafakkurida umumiy universal qadriyat — ta'lim olish huquqining tengligi ifodalanadi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi inclusive education terminida huquqiy-demokratik qadriyatlar ustuvor bo'lsa, o'zbek tilidagi inklyuziv ta'lim terminida insonparvarlik, g'amxo'rlik va ijtimoiy hamjihatlik semalari kuchliroq seziladi.

Pedagogik terminologiyada *competency-based education* va kompetensiyaviy yondashuv terminlari ham aksiologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi competency-based education termini bilimni amaliyotga tatbiq etish, kasbiy tayyorgarlik, samaradorlik va natijaga yo'naltirilganlik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi kompetensiyaviy yondashuv termini esa ta'lim oluvchida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni uyg'un shakllantirishga qaratilgan pedagogik tamoyil sifatida qo'llanadi. Masalan: English: competency-based education – practical skills, performance, achievement, productivity. O'zbek: kompetensiyaviy yondashuv – bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy rivojlanish. Mazkur terminlarning aksiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida ushbu tushuncha ko'proq natijadorlik, kasbiy samaradorlik va raqobatbardoshlik bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida u barkamol shaxsni shakllantirish, ijtimoiy foydalilik va ta'lim-tarbiya birligi bilan aloqador holda talqin qilinadi.

Shuningdek, English pedagogical discourse'da critical thinking termini muhim o'rin tutadi. Ushbu termin mustaqil fikr yuritish, dalillarga asoslanish, muammoni tahlil qilish va xolis baholash kabi intellektual qadriyatlarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi tanqidiy tafakkur termini ham mazmunan shu tushunchaga mos keladi. Biroq o'zbek ta'limiy diskursida bu termin ko'pincha fikr madaniyati, mulohaza yuritish, asosli xulosa chiqarish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liq holda ishlatiladi. Masalan: English: critical thinking – analysis, reasoning, evidence, independent judgment. Uzbek: tanqidiy tafakkur – tahliliy fikrlash, asosli xulosa, ilmiy dunyoqarash, mulohazalilik. Bu terminlarning umumiy aksiologik mohiyati o'quvchi yoki talabaning passiv bilim oluvchi emas, balki faol fikrlovchi, tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanishini ifodalashidir.

O'zbek pedagogik terminologiyasida komil shaxs, ma'naviy tarbiya, barkamol avlod,

vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, odob-axloq tarbiyasi kabi terminlar alohida aksiologik yuklamaga ega. Ushbu terminlar ta'lim jarayonining faqat bilim berishga emas, balki ma'naviy yetuk, axloqiy mas'uliyatli, ijtimoiy faol va milliy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashga qaratilganligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida esa student-centered learning, lifelong learning, educational equity, collaborative learning, reflective practice kabi terminlar keng qo'llanadi. Ular shaxs erkinligi, uzluksiz rivojlanish, tenglik, hamkorlik, refleksiya va o'z-o'zini baholash kabi qadriyatlarni ifodalaydi.

Quyidagi misollar qiyosiy jihatdan e'tiborga loyiq:

1. student-centered learning – o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim.

Bu terminlar shaxsga hurmat, individual ehtiyojlarni hisobga olish va ta'lim oluvchining faolligini qadrlash g'oyasini ifodalaydi.

2. lifelong learning – uzluksiz ta'lim.

Har ikki tilda mazkur termin insonning butun hayoti davomida bilim olishga intilishi, o'zini rivojlantirishi va zamon talablariga moslashishini anglatadi.

3. collaborative learning – hamkorlikda o'qitish.

Bu terminlar jamoaviy faoliyat, o'zaro yordam, muloqot madaniyati va ijtimoiy hamkorlik qadriyatlarini ifodalaydi.

4. reflective practice – reflektiv amaliyot.

Ingliz tilida bu termin o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirishini bildiradi. O'zbek tilida esa reflektiv yondashuv yoki o'z-o'zini tahlil qilish kabi shakllarda ifodalanib, pedagogik mas'uliyat va kasbiy o'sish qadriyatlari bilan bog'lanadi.

5. educational equity – ta'limda tenglik.

Bu terminlar ta'lim olish imkoniyatlarining adolatli taqsimlanishi, ijtimoiy farqlarni kamaytirish va barcha o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratish qadriyatlarini aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning aksiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz pedagogik terminologiyasida ko'proq individual autonomy, equality, flexibility, creativity, critical thinking, innovation kabi qadriyatlar ustuvor bo'lsa, o'zbek pedagogik terminologiyasida ma'naviyat, tarbiya, komillik, mas'uliyat, milliy qadriyat, ustoz-shogird an'anasi va jamoaviylik kabi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, har ikki tilda ham bilim, rivojlanish, insonparvarlik, hamkorlik, ta'lim sifati va shaxs kamoloti kabi universal pedagogik qadriyatlar mavjud. Demak, pedagogik terminlarning aksiologik mohiyatini ingliz va o'zbek tillari misolida o'rganish terminlarning faqat lug'aviy-semantik mazmunini emas, balki ular orqali ifodalanadigan milliy-madaniy va universal qadriyatlar tizimini ham aniqlash imkonini beradi. Bu esa pedagogik terminologiyani lingvokognitiv, lingvomadaniy va pragmatik yondashuvlar asosida kompleks tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Demak, pedagogik terminologiyadagi aksiologik mohiyat terminlarning ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni kodlash, ta'limiy ideallarni ifodalash va pedagogik tafakkurni qadriyatlar asosida yo'naltirish xususiyatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv pedagogik terminlarni oddiy nominativ birliklar tizimi sifatida emas, balki milliy ta'lim konsepsiyasi, madaniy tajriba va universal pedagogik qadriyatlarni aks ettiruvchi murakkab lingvokognitiv hamda lingvomadaniy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mazkur terminlar tarkibida zamonaviy ta'lim jarayonining yetakchi qadriyatlari, xususan, mustaqillik, mas'uliyat, reflektiv tafakkur, halollik, adolat, hamkorlik va shaxsiy rivojlanish kabi aksiologik mezonlar verbal shaklda namoyon bo'ladi. Shu bois pedagogik terminlar nafaqat muayyan tushunchalarni nomlovchi birliklar, balki ta'lim tizimida ustuvor deb e'tirof etiladigan konseptual va qadriyatga yo'naltirilgan mazmunni ifodalovchi lingvokognitiv vositalar sifatida ham talqin etiladi.

Kognitiv tilshunoslikda terminlar muayyan konseptlarning verbal ifodasi sifatida qoraladi. Bunday yondashuvga ko'ra, har bir termin ortida alohida tushuncha emas, balki muayyan bilimlar majmui, assotsiativ bog'lanishlar, baholash mezonlari va madaniy-semantik qatlamlardan tashkil topgan murakkab konseptual tuzilma mavjud bo'ladi. Pedagogik terminlar ham aynan shunday kognitiv-semantik xususiyatga ega bo'lib, ular ta'lim jarayonida shakllangan nazariy qarashlar, didaktik tamoyillar, ijtimoiy ehtiyojlar va pedagogik qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, ingliz tilidagi learner autonomy termini zamonaviy pedagogik diskursda ta'lim oluvchining faol, mustaqil va mas'uliyatli subyekt sifatida shakllanishini ifodalaydi.

Ushbu terminning konseptual maydoni quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

mustaqil qaror qabul qilish; o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish; reflektiv fikrlash;

haxsiy mas'uliyat; ichki motivatsiya; individual o'quv strategiyasini tanlash; o'z ta'lim

natijalarini baholash.

O'zbek tilidagi mustaqil ta'lim termini ham mazmunan learner autonomy tushunchasiga yaqin bo'lib, talabaning bilimni mustaqil egallashi, o'z ustida ishlashi, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi va shaxsiy intellektual rivojlanishga intilishini anglatadi. Biroq ushbu termin o'zbek pedagogik diskursida milliy ta'lim an'analari, ustoz-shogird munosabatlari, mehnatsevarlik, intizom va mas'uliyat qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Demak, learner autonomy termini ingliz tilida ko'proq individual erkinlik va o'z-o'zini boshqarish g'oyasi bilan bog'lansa, mustaqil ta'lim termini o'zbek tilida shaxsiy mas'uliyat, izlanish, intizom va bilimga intilish konseptlari bilan boyiydi.

Shuningdek, academic integrity termini ingliz tilida akademik muhitda halollik, ishonch, adolat, mas'uliyat, shaffoflik va ilmiy me'yorlarga rioya qilish kabi tushunchalar bilan bog'liq konseptual maydonni hosil qiladi. Mazkur termin ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining bilim yaratish, baholash, ilmiy izlanish va taqdim etish jarayonidagi axloqiy javobgarligini ifodalaydi. O'zbek tilida esa ushbu tushuncha akademik halollik, akademik odob, vijdonlilik, mas'uliyat, ilmiy halollik va odob-axloq me'yorlariga rioya qilish kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz tilidagi academic integrity konsepti ko'proq institutsional tartib, ilmiy shaffoflik, plagiatga yo'l qo'ymaslik va baholash adolati bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi akademik halollik yoki akademik odob tushunchalari axloqiy poklik, vijdon, mas'uliyat, ustozga hurmat va ilmga sadoqat kabi milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi. Bu esa bir xil pedagogik konsept turli tillarda umumiy mazmunni saqlagan holda, har bir xalqning madaniy, ijtimoiy va aksiologik tajribasi asosida o'ziga xos semantik talqin kasb etishini ko'rsatadi.

Pedagogik terminlarning konseptual-aksiologik tahlili

♦ Tadqiqot doirasida tanlangan 120 ta termin asosida ♦

Konseptual-aksiologik guruh	Ingliz tilidagi ulushi	O'zbek tilidagi ulushi
 Mustaqillik va individual rivojlanish	35%	13,4%
 Ma'naviy tarbiya va shaxs kamoloti	10%	40%
 Akademik halollik va odob	13,3%	16,6%
 Tanqidiy tafakkur va refleksiya	18,3%	13,4%
 Tenglik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolat	23,3%	10%
 Hamkorlik va kommunikativ kompetensiya	10%	10%



Natija: ingliz pedagogik terminologiyasida individual rivojlanish, tenglik va tanqidiy tafakkur komponentlari faolroq; o'zbek pedagogik terminologiyasida esa ma'naviy tarbiya, shaxs kamoloti va akademik odob komponentlari ustuvorlik kasb etadi.



Demak, pedagogik terminlarning konseptual xususiyatlari ularning ortida mavjud bo'lgan bilimlar tizimi, qadriyatlar majmui, madaniy tajriba va pedagogik tafakkur modellari bilan belgilanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi learner autonomy – mustaqil ta'lim, academic integrity – akademik halollik/akademik odob kabi terminlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik terminlar faqat nominativ birlik emas, balki ta'lim jarayonining kognitiv, aksiologik va lingvomadaniy mazmunini ifodalovchi murakkab konseptual birliklardir.

Tahlillar natijasida ingliz pedagogik terminologiyasida individualizm, mustaqillik, tanqidiy fikrlash va shaxsiy rivojlanish qadriyatlar ustuvorligi kuzatiladi. O'zbek pedagogik terminologiyasida esa hamkorlik, ustoz-shogird an'analari, jamoaviylik va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq qadriyatlar kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan: learner autonomy — o'quvchi mustaqilligi; critical thinking — tanqidiy fikrlash; mentoring — ustozlik; collaborative learning — hamkorlikda ta'lim. Ushbu terminlar ikki tilning pedagogik konseptual sohasida umumiy va milliy xususiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlar nafaqat ilmiy tushunchalarni ifodalovchi terminologik birliklar, balki ta'lim tizimining aksiologik va konseptual asoslarini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik terminologiyada mustaqillik, hamkorlik, halollik, tenglik va uzluksiz rivojlanish kabi qadriyatlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi pedagogik terminlar individual rivojlanish va shaxsiy tashabbusga urg'u bersa, o'zbek pedagogik terminologiyasida jamoaviylik, ustoz-shogird munosabatlari va ma'naviy qadriyatlar ustuvorligi kuzatildi. Bu esa pedagogik terminlarning til va madaniyat bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nizomova M.B. Ingliz va o'zbek tillarida ta'limga oid terminlarning qiyosiy tahlili // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2023. – № 6. – B. 93–99.

2. Nizomova M.B. Pedagogik terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv. – Qarshi, 2025. – 156 b.
3. Nizomova M.B. Pedagogik terminlarning lingvopragmatik tasnifi va ularning nutqiy-funksional ifodalanishi. – Qarshi, 2025. – 128 b.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... – Toshkent: Fan, 2012. – 176 b.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
6. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996. – 245 с.
7. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
9. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997. – 317 p.
10. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London: Edward Arnold, 1978. – 256 p.
11. Bernstein B. Pedagogy, Symbolic Control and Identity: Theory, Research, Critique. – Oxford: Rowman & Littlefield, 2000. – 229 p.
12. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000.